



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 29-aprel, chorshanba,
39 (24.219)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bir qo'llab
eksang,
ikki qo'llab
o'rasan

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



SAMARKAND
59th ANNUAL MEETING OF
THE ASIAN DEVELOPMENT BANK
3-6 MAY 2026

ADB Invites Participants
to Samarkand 2026

Osiyo taraqqiyot bankining yillik yig'ilishi Samarqandda o'tkaziladi

Shu yilning 3-6-may kunlari Samarqand shahrida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) boshqaruvchilari kengashining 59-yillik yig'ilishi bo'lib o'tadi. Unda uch mingdan ortiq ishtirokchi, bank rahbariyati va hamkor davlatlar bank-moliya idoralari mas'ullari, nufuzli delegatsiyalar qatnashishi kutilmoqda.

Ayni paytda "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazi hamda shaharning boshqa obyektlarida ushbu nufuzli anjumanga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmoqda.

OTB O'zbekistonning eng yirik moliyaviy sheriklaridan biri bo'lib, bank tomonidan so'nggi 5 yilda mamlakatimizga 5,4 milliard dollardan ortiq mablag' yo'naltirilgan. 2025-yilda bank portfelidagi O'zbekiston bilan bog'liq loyihalar 60 ga yaqin bo'lib, ularning umumiy qiymati 9,5 milliard dollarni tashkil etgan.

Banking 2024–2028-yillarda mamlakatimiz bilan hamkorlik strategiyasi "yashil iqtisodiyot" va inklyuziv o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bunda energetika (qayta tiklanuvchi energiya,

elektr tarmoqlari), suv ta'minoti va kommunal xizmatlar, transport va logistika, ta'lim va ijtimoiy infratuzilma, xususiy sektor va moliyaviy tizim, ekologiya va "yashil iqtisodiyot" asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

O'zbekistonning OTB bilan hamkorligi eng faol va strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu hamkorlik mamlakatda elektr ta'minotini barqarorlashtirish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish va eski infratuzilmani yangilashga qaratilgan.

Bank tomonidan yurtimizdagi bir nechta quyosh elektr stansiyalari qurilishi moliyalashtirilgan hamda Samarqand, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yirik stansiyalar qurilishi uchun investitsiya kiritish rejalashtirilgan.



Mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Media haftalik" tadbirlari Samarqandda davom etmoqda.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi, viloyat hokimligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi hamda yoshlar ishlari agentligi hamkorligida o'tkazilmoqda.

Mashg'ulotlarda taniqli media ekspertlar, kontent markazi xodimlari va jurnalistlar tomonidan O'zbekiston bosma mediasidagi kontent: amaliyot, muammo va yechim, Prezident faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritishning asosiy yo'nalishlari, mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy tarmoqlardagi amaliyotidan keyslar tahlili kabi mavzular bo'yicha fikr almashilmoqda.

"MEDIA HAFTALIK": KONTENT, KEYS VA TAJRIBA

– Media haftalik shunchaki o'quv seminar emas, ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalist va blogerlar, kontent tayyorlash bilan shug'ullanuvchilar uchun o'zaro tajriba, fikr almashish maydoni vazifasini o'tamoqda, – deydi media ekspert Eldor Asanov. – Bu maydonda ko'proq amaliy mashg'ulotlar va keyslar alohida e'tibor qaratyapmiz, bir-birimizdan o'rganyapmiz, tajribalarimizni bo'lishyapmiz. Bugungi kunda ommaviy

axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar, ma'lumotlar va tahliliy materiallarni e'lon qilishning huquqiy, axloqiy masalalari yuzasidan hamkasblarimizga tushuncha berishga harakat qilyapmiz.

Mashg'ulotlarda viloyatda faoliyat yuritayotgan jurnalist va blogerlar, bosma va internet jurnalistikasi, televideniye va radio vakillari, axborot xizmatlari xodimlari ishtirok etmoqda.

Haftalik 1-may kuni yakunlanadi.

Jamiyatda har bir insonning davlat va mahalliy hokimiyat organlariga murojaati bu nafaqat huquq, balki ijtimoiy ishonchning ifodasi hisoblanadi. Mazkur murojaatlar orqali aholi o'z ehtiyojlari, muammolari va takliflarini bildirib, davlat organlariga ishonch bildirishi kerak. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda viloyatimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimida ayrim kamchiliklar mavjud.

STATISTIKA YOKI RAQAMLAR HAQIQATI

Joriy yilning 25-mart holatiga ko'ra, viloyatimizda virtual va Xalq qabulxonalariga jami 18354 ta murojaat kelib tushgan. Bu ko'rsatkich aholi va davlat organlari o'rtasidagi aloqaning qanchalik faol ekanini ko'rsatsa ham, uning samaradorligi pastligini ham ochiq-ula turadi.

Ko'rib chiqilgan murojaatlarning atigi 39 foizi yoki 5311 tasi ijobiy hal etilgan. Murojaatlarning 57 foizi "huquqiy ma'lumot berildi" yoki "tushuntirish berildi" degan ma'no bilan yopilgan. Bu esa aholiga berilgan asosiy javobning amaliy e'tiborsizligidan darak bermoqda. Ya'ni, har ikkinchi murojaatchi haqiqiy yechim olish o'rniga, faqat qonun matni bilan "qamrab qo'yilgan" bo'lmoqda.

MUROJAATLAR BILAN ISHLASH:

mas'uliyatni oshirish va natijaga harakat

PAST SAMARADORLIKNI KIMLAR BELGILAMOQDA?

Hududlar bo'yicha ko'rsatkichlar qator savollarni tug'diradi. Jomboy tumani - 64 foiz, Samarqand tumani - 63 foiz, Narpay tumani - 61 foiz, Kattaqo'rg'on shahrida - 60 foiz ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu raqamlar rahbarlarning fuqarolar muammosini hal qilishdagi samaradorligining pastligini ko'rsatadi.

Takroriy murojaatlarda ham bu kamchilik bo'y ko'rsatib turibdi. Xususan, viloyatda 4663 ta takroriy murojaat ro'yxatga olingan. Bu esa har bir murojaatning amaliy yechimini topa olmayotgan ijrochilarning faoliyatini ochiq-ula. Misol uchun, Samarqand tumani-da F.Berdiyev qaydi itlar masalasi bo'yicha 10 marta murojaat qilgan, Oqdaryo tumanida Gulbahor Mardieva 8 marta farzandlarini "Yoshlar daftari"ga kiritish uchun "yozgan". Demak, murojaatlar birinchi marta eshitilma-

gan, ikkinchi marta yuzaki ko'rib chiqilgan va uchinchi-da ham samarali yechim berilmagan.

YO'NALISHLAR VA IJROCHILAR VA'DALARI...

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning asosiy qismini uchta yo'nalish tashkil etadi: uy-joy va kommunal xizmatlar, obodonlashtirish va yo'llar, ijtimoiy himoya. Ayniqsa, suv, yo'l va elektr masalasida ijrochilarning asosiy gapi shu: "Dasturga kiritamiz" yoki "Mablag' ajratilsa qilamiz". Bu holat rahbarlarning tashabbus va mas'uliyatini yo'qqa chiqaradi, aholi esa yangicha yechim kutmoqda.

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasida 32 ta murojaatdan 97 foizi "tushuntirish berildi," deb yopilgan. Pensiya jamg'armasida 72 ta murojaatning 93 foiziga faqat tushuntirish berilgan. Bu holatlar murojaatlarni amaliy yechimsiz qoldirishning misoli bo'lmoqda.

NIMA QILISH KERAK?

Viloyat hokimi olib borgan yig'ilishda murojaatlar bilan ishlashda munosabatni tubdan o'zgartirish zarurligi qayd etildi. Xususan, hokimlar va mas'ullar ogohlantirildi.

"Dasturga kiritildi" va "tushuntirish berildi" mexanizmlariga nazorat o'rnatiladi. Barcha murojaatlar bo'yicha haqiqiy amaliy yechim berilishi shart. Agar amaliy ishlar boshlanmagan bo'lsa, ular nazoratdan olinmaydi.

Har bir murojaat faqat fuqaroning roziligi bilan yopilishi kerak, shunda murojaatlar amaliy yechim topgani aniq bo'ladi.

Qayd qilinganidek, har bir murojaat orqasida bitta inson taqdiri, uning davlatga ishonchi turibdi. Agar davlat idoralari fuqarolarning og'irini yengil qila olmasa, aholi ishonchi yo'qoladi va ijtimoiy ruh salbiyga buriladi. "Inson qadri uchun" tamoyili bugungi kunning talabiga aylanishi kerak — faqat shior emas, kundalik ish uslub bo'lishi shart.

Viloyatimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimiga jiddiy islohlalar zarur. Faqat shu orqali fuqarolarning ishonchi saqlanadi, ijtimoiy muammolar hal etiladi va rahbarlarning samaradorligi oshiriladi. Bu maqsad murojaatni "yopish" emas, aholi og'irini yengil qilishdir.

Y.MARQAYEV tayyorladi.



Viloyat hokimiga maslahatchi
tayinlandi



Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti hududidagi xiyobon yangicha
qiyofa kasb etmoqda



Texnikumda o'qiganlar xorijda ishlash,
oliy o'quv yurtiga ikkinchi kursdan o'qish
imkoniyatiga ega bo'ladi



"Temur tuzuklari" ilk marta
belarus tiliga tarjima qilindi

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinishi, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

PAXTACHI TUMANI

Jarayonda asosiy e'tibor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1366,3 milliard so'mga yetkazish orqali mahalliy budjetning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Bu raqamlar shunchaki statistika emas, balki Ziyovuddin shaharchasi va uning atrofidagi mahallalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushishi, kichik sanoat zonalarida faoliyatning jonlanishi demakdir.

Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasidagi 118,8 foizlik o'sish prognozi tuman aholisining turmush tarzi o'zgarayotganini, servis va savdo madaniyati yangi bosqichga chiqayotganini ko'rsatadi. Bu maqsadlariga erishish uchun «loyihaviy yondashuv» tamoyili asosida 244 ta yangi savdo va servis obyektlarini ishga tushirish belgilangan bo'lib, bu oziq-ovqatdan tortib, yuqori texnologik xizmatlarga cha bo'lgan keng qamrovni o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar oqimi Paxtachining tabiiy boyliklari va geografik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda asosiy katalizator vazifasini o'taydi. 147 million dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejasi tuman tarixidagi



eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Bunda "Stannum taurus" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshiriladigan 35 million dollarlik loyiha alohida ahamiyatga ega. Qalay rudasini qazib olish va qayta ishlab o'rash orqali Paxtachi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki tog'-kon sanoati rivojlangan hudud sifatida ham xalqaro maydonga chiqadi.

Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga rejalashtirilgan rasmiy tashrif, mahalliy tadbirkorlarning Yevropa Ittifoqi bozorlariga GSP+ tizimi orqali kirib borishi tumaning eksport salohiyatini 32,1 million dollarga

yetkazishda mustahkam zamin bo'ladi. Bu jarayonlar «soyadan chiqarish» tamoyili asosida 2175 ta yangi ish o'rini legalashtirish va mahalliy budjetga 148,2 milliard so'm daromad tushishini kafolatlaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasida Paxtachi o'zining an'anaviy yetakchiligini saqlab qolgan holda, intensiv texnologiyalarga o'tmoqda. 3194,6 milliard so'mlik mahsulot yetishtirish rejasi zamirida yerdan foydalanishning yangicha tizimi yotadi. Shinjon texnologiyasi asosida qo'shqator sxemada chigit ekish, 5554 gektar maydondan 100 sentnerdan g'alla hosili olish va 400 gektar foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta o'zlashtirish — bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, suv taqchilligi sharoitida 3 335 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish Paxtachi dehqonlarining tabiiy inijliklariga tayyor ekanidan dalolat beradi. Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining kengayishi ichki bozorda qo'sh va sut mahsulotlari narxining barqarorligini ta'minlaydi.

Infratuzilmaning yangilanishi tumaning ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartiradi. «Yangi O'zbekiston» qiyofasidagi Fay va Qarnabota mahallalarini kompleks rivojlantirish, 269 xonadonli zamonaviy uy-joylar qurilishi aholining yashash sharoitini yaxshilashdagi strategik qadamdir.

Ichmiqlik suvi ta'minotining 89 foizga

yetkazilishi, 34 kilometrdan ortiq yo'llarning ta'mirlanishi va «Tashabbusli budjet» loyihalari orqali mahallalardagi muammolarning bevosita xalq ishtirokida hal etilishi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Ayniqsa, «Yashil makon» loyihasi doirasida ekiladigan 1,1 million tup ko'chat Paxtachining ekologik muhitini musaffolashtirishga xizmat qiladi.

Inson qadriini ulug'lash va ijtimoiy himoya masalasi Paxtachi strategiyasining markaziy nuqtasidir. Kambag'allik darajasini 2,3 foizga tushirish uchun 1280 oila bilan individual ishlash, «Mehnatsevar ayol» va «Teng imkon» kabi loyihalar orqali nogironligi bo'lgan shaxslar va ehtiyojmand ayollarni ish bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Sog'liqni saqlash sohasidagi skrining tadbirlari, xotin-qizlarni IT va STEAM yo'nalishlariga o'qitish, yoshlarning chet tillarini o'rganishi uchun subsidiyalar ajratish — bularning barchasi Paxtachining kelajakdagi inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan investitsiyalardir.

Joriy yil yakuniga borib, Paxtachi tuman nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlari, balki odamlarining roziligi va farovonligi bilan viloyatimizning eng namunali hududlaridan biriga aylanishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilgan. Bu jarayonda mahallabay ishlash tizimi va «yettilik» vakillarining faolligi muvaffaqiyatning asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi.

HISOBDORLIK VA OCHIQLIK —

Deputat minbari

mahalliy boshqaruv samaradorligining poydevori

Davlatimiz rahbari 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida konstitutsiyaviy islohotlar doirasida viloyat hokimlari va mahalliy Kengashlar raislari lavozimlarining bir-biridan ajratilgan kutilgan samarani berganini ta'kidlab, endi bu tizim 2026-yil 1-yanvardan 208 ta tuman va shaharda ham yo'lga qo'yilishini qayd etdi. Ushbu jiddiy siyosiy islohot — hokimlar va ijro idoralardan Kengashlarga munosabatni mutlaqo o'zgartirishni talab qilishi aytiladi.

Shu asosda o'tgan yilning so'nggi kunlarida Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi-ga saylangan deputatlar orasidan Kengashga rais saylandi va Kengashga hokimning rahbarlik qilishi tugatildi.

Ayni paytda rais Kengashga jamoatchilik asosida rahbarlik qiladi. Kengash faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlaridan xizmat ko'rsatish Kengash kotibiyati tomonidan ta'minlanadi.

Aytish mumkin, bu tartib vakillik organi faoliyatida ijobiy o'zgarishlarga xizmat qilmoqda.

Misol uchun, saylov okrugi va saylovchilar manfaatlaridan kelib chiqib, aholi bilan muloqotlarda ko'tarilgan murojaatlar asosida "deputat so'rovi" institutidan samarali foydalanilyapti. Shu paytgacha muammoli masalalarni hal etish hamda davlat va hududiy dasturlar ijrosini nazorat qilish yuzasidan tegishli boshqarma va idoralar rahbarlariga yuzga yaqin deputatlik so'rovi yuborildi. So'rovlar ijro nazorati tizimlari yuritilishi natijasida ular ortidan saylovchilar hayotida ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'yapti.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli Xalq deputatlari Kengashiga viloyatni, tumanni, shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etishi, ushbu hisobotlar bo'yicha Xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinishi belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan o'zgarishga mahalliy Kengashlar faoliyatining katta qismi hududiy davlat organlari rahbarlarining hisobot va axborotlarini eshitishga to'g'ri keladi. Yashirib nima qildik, ayrim hollarda hisobotlar yuzaki tinglangan, muhokama uchun yetarli vaqt ajratilmay, masalalar real hayotdagi muammolar bilan uzviy bog'lanmasdi. Eng muhimi, eshituvlar yakuni bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosi yetarli darajada tahlil qilinmasdi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda ham Xalq deputatlari Kengashlarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining hisobot (hisobot)larini eshitib borish tartibi mavjud. Ana shu huquqiy asoslar bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining o'nlab hisobot va axboroti eshitildi.

Misol uchun, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i va boshqa sohalar rahbarlari ham belgilangan muddatlar-da faoliyati yuzasidan hisobot, prokuror, adliya bo'limi boshlig'i esa axborot berdi.



Endi hisobotlar Kengash ish rejasi asosida, doimiy komissiyalar ishtirokida, ishchi guruhlar tomonidan oldindan puxta tayyorlanadi. Materiallar tahlil qilinadi, aholining murojaatlari o'rganiladi, mutaxassislar va jamoatchilik vakillari jalb etiladi.

Har bir hisobot davlat dasturlari ijrosi, aholi ijtimoiy muammolarining yechimi, mahalliy budjet mablag'laridan foydalanish, korrupsiyaga qarshi kurash va deputatlar so'rovlariga munosabat kabi mezonlar asosida tanqidiy ko'rib chiqilishi belgilangan.

Amaldagi tartibga ko'ra, Kengash hisobot (axborot)ni eshitish yakunlari bo'yicha baho berishi ham mumkin. Bu esa ijro hokimiyati rahbarlarining mahalliy Kengashdagi chiqishlari yuzaki bo'lib qolmasligi garovi bo'yapti.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 23-iyunda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida yana bir qator vakolatlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'tkazilishi belgilangan.

Bularning barchasi albatta, mahalliy Kengashlarning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishdagi rolini oshirishga xizmat qilmoqda.

Farmon OCHILOV,
xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi kotibiyati mudiri.

12 xil surunkali xastaligi bor bemorlarga 28 turdagi dori-darmon bepul tarqatiladi. Davolanishga ehtiyoji bor aholi yo'llanma bilan viloyat, respublika shifoxonalarida davolanishi uchun nima qilishi kerak?

Samarqand viloyatida 2025-yil 1-iyuldan davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu kunga qadar imtiyozli toifadagi qariyb 8 ming nafar bemor elektron yo'llanma asosida davolandi. Yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari uchun 127 milliard so'm mablag' jamg'arma tomonidan qoplab berildi. Bu kabi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keyingi paytlar tez-tez uchratasiz. Lekin odamlar bilan suhbatlashsangiz, turli fikrlarni eshitasiz. Aksincha, hammasi murakkablashdi-ku, bepul xizmat qayerda, degan e'tirozlar ham bo'ladi fikrlarni ham eshitib qolasiz.

UCH OYDA 11 MILLIARD SO'M

To'g'ri, jamiyatda har qanday yangilik tezkorlik bilan singib ketmaydi. Bunda tizim ishtirokchilarining, undan foydalanuvchilarining ham yangiliklarni ilg'ashi va undan to'g'ri foydalanishni bilishi talab etiladi. Xo'sh, bu jarayon, ya'ni davlat tibbiy sug'urtasining sog'liqni saqlash tizimi bilan integratsiyasi qanday kechayapti? Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashabbusi bilan o'tkazilgan press-turda shu kabi savollarga javob topdik.

Birinchi manzil — viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida Samarqandagi holat haqida bilan Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Davron Razzoqov ma'lumot berdi.

O'tgan yil 8 ming nafar bemor viloyat klinikalarida yo'llanma asosida bepul davolanish imkoniga ega bo'ldi, — deydi D.Razzoqov. — Jumladan, 7 ming 600 nafardan ko'proq bemor davlat tibbiyot muassasalarida, qariyb 200 nafari xususiy klinikalarda davolandi. Amalgah oshirilgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari uchun davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi 127 milliard so'm mablag'ni qoplab berdi. Joriy yilning 1-mart holatiga ko'ra, 875 nafar bemor imtiyozli yo'llanma asosida davolangan bo'lib, ularga sarflangan 11 milliard so'mni jamg'arma to'ladi.

XORIJDASI 20 MING DOLLARLIK OPERATSIA BIZDA TEKIN

— Muassasamiz 2022-yildan beri davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan hamkorlik qiladi, — deydi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori o'rinbosari Anjela Ayropet-yan. — O'tgan yil yo'llanma asosida



Tibbiy sug'urta

BEPUL osmondagi gapmi?

TIBBIY XIZMAT

Yoki tibbiy sug'urta tizimi qanday ishlayapti?

1,5 ming nafar bemorda yuqori texnologik operatsiyalar amalga oshirildi. Shu yilning uch oyida esa ularning soni 311 ta bo'ldi. 2024-yildan buyon 55 nafar bemorda jigar, 165 nafarida buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyotlari jamg'arma mablag'lari asosida amalga oshirildi.

Bu turdagi operatsiyalarning eng arzoni boshqa mamlakatlarda kamida 20 ming dollar mablag'ni talab etadi, — deydi shifoxonaning angioxirurgiya va transplantatsiya bo'limi boshlig'i Sherali Norqo'ziyev. — Gap buyrak transplantatsiyasi haqida ketar ekan, shifoxonamizda 2022-yildan ushbu operatsiya xarajatlari, dori-darmonlar jamg'arma hisobidan to'lab berildi.

"OPERATSİYAGA 45 MILLION SARFLANGANMI..."

Respublika kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialida ham xuddi shunday, yo'llanma asosida kelib, davolanayotgan fuqarolar soni yildan-yilga ko'paymoqda.

Salima Karimova mana shu tartib asosida o'z sog'ligini tiklamoqda.

Navoiy viloyati Karmana tumani-danman, — deydi Salima Karimova. — Bir necha yildan beri yurak xastaligidan aziyat chekaman. Yetti yillar avval Navoiyda shifokorlar yuragimda stentlash amaliyoti o'tkazilishi kerak, deyishdi. U paytlar bugungidek sharoit, imtiyozlar yo'q edi. Toshkentdan malakali shifokorlar Navoiyga kelgan-da shu operatsiyani amalga oshirishdi. Yetti yil avval qarindosh-urug'dan yordam so'rab 45 million mablag'ni amallab topgandik. Bu yil bezovtalik bilan shifokorlarimizga ko'ringanimda ular hozir operatsiyalar uchun imtiyoz bor ekanligini aytishdi. Aorta koronar shtuntlash operatsiyasini o'tkazishdi, vrachlarga, hamshiralarga rahmat. Bir tiyinsiz qarashdi, o'zimni yaxshi his qilyapman, shukur.

Mazkur muassasada shu yilning

o'zida 410 nafar bemor shu kabi imtiyozlardan foydalanishda "organizm motori"ni sozlab olishdi.

NOGIRONLIK 30 FOIZGA KAMAYDI

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan hamkorlikda ish olib borilgach, bemorlar soni keskin oshib ketdi, — deydi Respublika kardiologiya ilmiy-amaliy markazi viloyat filiali mas'ul xodimi Jahongir G'ulomov. — Chunki uzoq yillar davomida mablag' bo'lmagan tufayli bunday davolanish imkoniga ega bo'lmaganlar ko'p edi. O'tgan yilning o'zida 1600 nafardan ortiq bemorda shu imkoniyatdan foydalanib, yuragida stentlash amaliyoti va boshqa operatsiyalar amalga oshirildi. Tabiiyki, bemorlarning ko'pligi tufayli navbat hosil bo'ldi, lekin navbat onlayn tashkil etilgan bo'lib, ko'pi bilan ikki oyga cho'zildi, barchasi vaqtda bajarildi. Ahvoli og'ir, salomatligidagi ko'rsatkichlar salbiy bo'lgan bemorlarda operatsiyalar navbatsiz, shoshilinch tarzda o'tkazildi.

Mana shu tizim yo'lga qo'yilishi bilan yurak xastaligi ichida eng ko'p uchraydigan yurak yetishmovchiligi kasalligi 40 foizga kamaydi, 30 foizga cha nogironlikning oldi olindi.

Bu misollardan so'ng o'quvchida "yo'llanma qanday olinadi?", degan savol tug'iladi. Avvalo, o'z hududingizdagi oilaviy shifokoringiz bu masalada sizga eng yaqin maslahatchi bo'lishi kerak. Yuqorida aytilgan imtiyozlar haqida, aynan o'zingizga tegishli xastalikni davolashdagi maslahatlar bilan bir qatorda imtiyozlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Agar ulardan ko'nglingiz to'lmasa, jamg'arma qoshida tashkil etilgan 1149 qisqa raqamli koll-markazga murojaat qilaverasiz.

Gulruh MO'MINOVA.

Viloyatimizda 2026-yil hosili uchun 16274 gektar maydonda kartoshka yetishtirish rejalashtirilgan. Hosil viloyatimiz aholisidan tashqari boshqa hududlarga ham yetkazib beriladi. Shu bois maydonlardan yuqori hosil olish, kasallik va zararkunandalarga qarshi samarali kurashish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy yondashuvlar hamda ilg'or agrotexnologiyalarni keng joriy etish hosildorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Fermerlar ogohlantirildi



qsadga muvofiq. Bunda organik o'g'itlar hamda fosfor, kaliy o'g'itlarining asosiy qismi haydov jarayonida, qolgan qismi esa vegetatsiya davrida bosqichma-bosqich qo'llaniladi.

Boshqarmamiz va tuman bo'limlarimiz mutaxassislar tomonidan kartoshka ekish va parvarishlash jarayonlari doimiy nazoratga olingan. Maydonlarda o'tkazilayotgan monitoringlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fermer xo'jaliklari va soha mas'ullariga ko'rsatma va ogohlantirishlar berilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda agrotexnik tadbirlarga yetarli e'tibor qaratilmayotgani ham kuzatilmoqda. Xususan, o'tkazilgan monitoringlar natijasida 726 fermer xo'jaligining 3122 gektar maydonida turli kamchiliklar aniqlandi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mahalliy hokimliklarga 13 ta taqdimnoma, 9 ta ko'rsatma, fermer xo'jaliklari va mas'ullarga 986 ta ogohlantirish berildi.

Sh.BUTUNOV,
"O'zagroinspeksiya"ning viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Jumladan, kartoshka maydonlarida azotli mineral va mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, sug'orish ishlarini to'g'ri tashkil etish, qator orasiga ishlav berish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra, ertaki kartoshkadan yuqori hosil olish uchun har gektarga 25-30 tonna mahalliy o'g'it, 200 kilogramm azot, 170 kilogramm fosfor, 100 kilogramm kaliy o'g'iti solish ma-

Landshaftshunoslarning ustozlari

Ustoz 1934-yilda Payariq tumanidagi Chelak shaharchasida tavallud topdi. Yoshligi og'ir davrlarga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, ilm egallashni maqsad qildi. 1954-yilda tumandagi 25-o'rta maktabni oltin medal bilan tugatgach, O'zbek davlat universitetining (hozirgi SamDU) geologiya-geografiya fakultetiga o'qishga kiradi. Oliy o'qishni tamomlab, ilk mehnat faoliyatini Payariq tumanidagi 19-maktab o'quvchilariga dars berishdan boshladi.



O'tgan asrning 60-yillarida universitetda endigina shakllanayotgan geograflar maktabi safini kengaytirishga kirishdi. O'sha davrning ilmga tashna yoshlari - A.Saidov, M.Abduljabborov, S.Nishonov, L.Alibekovlar qatori A.Abdulqosimov ham ishga qabul qilindi va aspiranturaga jo'natildi.

Serg'ayrat xodim Rossiyaning Voronej davlat universitetida tabiiy geografiya va landshaftshunoslik yo'nalishi bo'yicha aspiranturada o'qidi. 1961-1964-yillarda mashhur landshaftshunos olim F.Milkovdan soha sirlarini o'rgandi va izlanishlari natijasida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Keyin domla ilmiy-pedagogik faoliyatini qadrdon universitetida davom ettirib, assistentlikdan professorlik lavozimigacha bo'lgan pog'onalarni bosib o'tdi. Qaysi lavozimda ishlamasin ilmiy izlanishlarni to'xtatmadi. 1990-yilda Ozarbayjon Fanlar akademiyasining geografiya instituti qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda «O'rta Osiyo yirik tog'oralig'i botiqlari landshaftlarining makon differentsiatsiyalanishi va antropogen transformatsiyalanishi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Domlani bor boradagi ilmiy tadqiqotlari landshaftshunoslikning muammoli masalalarini «O'rta Osiyo tog'oralig'i botiqlar landshaftlarini tadqiq etish muammolari» monografiyasida yoritib berildi. Yirik tog'oralig'i botiqlarining ma-

teriklar bo'yicha geografik tarqalishini, ularning tuzilmasini tashkil etuvchi landshaft komplekslarining kenglik bo'yab shakllanishini, joyning geografik kengligiga va mulq balandligiga bog'liq holda o'zgarishini asoslab berdi.

A.Abdulqosimov muallifligidagi O'rta Osiyo va O'zbekistonda antropogen landshaftshunoslik yo'nalishining vujudga kelishiga oid o'ndan ziyod ilmiy-nazariy maqolalar Samarqand, Kattaqo'rg'on, Andijon, Farg'ona bo'yicha tuzgan yirik masshtabli landshaft-tipologik xaritalari yaratilishiga xizmat qildi.

Ustoz rahbarligida amalga oshirilgan antropogen landshaftshunoslik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar bugun magistrantlar va doktorantlar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda.

Professor A.Abdulqosimov 520 dan ortiq ilmiy maqola va monografiyalar, darslik hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi. Ilmiy asarlari Kanada, Avstriya, Germaniya va Rossiyaning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan. Ayniqsa, uning «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» o'quv qo'llanmasi va darsliklari maktab va oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida o'qitilmoqda.

S.ABBOSOV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti prorektori.
Q.Y.KARASHEV,
professor.

Oddiy holat ortidagi jiddiy javobgarlik

Tez-tez uchrab turadigan, lekin ko'pchilik e'tibor bermaydigan holatlardan biri bu topib olingan mol-mulka munosabatidir. Ko'chada pul, telefon, hujjatlar yoki boshqa qimmatbaho buyum topib olish ko'p hollarda tasodifiy voqea sifatida qabul qilinadi. Biroq aynan shu oddiy vaziyat insonning huquqiy saviyasi, halolligi va fuqarolik mas'uliyatini sinovdan o'tkazadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, topib olingan yoki tasodifan qo'lga tushib qolgan o'zganing mol-mulki egasiga qaytarib berilishi talab qilinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 62-moddasiga ko'ra, agar topilgan mol-mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan ortiq bo'lsa, uni egasiga qaytarmaslik yoki yashirib qo'yish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday holatda jarima qo'llaniladi va bu jarima bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorida belgilanadi.

Ushbu norma aslida oddiy, lekin mazmunan chuqur tamoyilga asoslanadi. Ya'ni, topilgan narsa hech qachon topgan odamniki bo'lmaydi. Chunki u baribir kimningdir mulki hisoblanadi. Qonun mulk huquqini himoya qiladi va bu huquqni buzish, "top-dim va jim turdim", degan holatda ham javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ko'pincha "Egasi topilmasa, nima qilaman?",



"O'g'irlamadim-ku, o'zim topdim", degan fikrlar uchraydi. Aslida bu yondashuv noto'g'ri. Qonun nuqtai nazaridan agar siz bilgan holda o'zganing mulkini qaytarmasangiz, bu huquqbuzarlik sifatida baholanadi.

Topilgan mol-mulk masalasida eng to'g'ri yo'l - egasini aniqlashga harakat qilish. Ba'zan bu oson bo'ladi, masalan, telefon yoki hujjat ichida egasiga oid ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Agar bunday imkoniyat bo'lmasa, ichki ishlar organlariga murojaat qilish orqali masalani qonuniy yo'l bilan hal qilsa bo'ladi. Bu nafaqat huquqiy jihatdan to'g'ri, balki insoniy nuqtai nazardan ham maqbul yechim.

Odamlar topgan narsasini o'zlashtirishni odat qilsa, bu jamiyatda befarqlik va ishonchsizlik kuchaytiradi. Topilgan buyumni egasiga qaytarish odati shakllansa, bu o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi.

Shu bois topib olingan mol-mulka bo'lgan munosabat faqat huquqiy masala emas, balki ma'naviy masala hamdir. Qonun jazolash uchun emas, balki to'g'ri yo'lga ko'rsatish uchun mavjud.

Nodiraxon OBIDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.

BU FAKT!

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (5 945,1 ming so'm), Jomboy tumanida (3 815,0 ming so'm), Toyloq tumanida (2 411,3 ming so'm), Samarqand tumanida (1 448,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 066,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, Payariq tumanida (126,0 %) Qo'shrabot tumanida (121,4 %), Kattaqo'rg'on shahrida (120,1 %), qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Pardayev Azamga (2021-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasida marhum Qurbonov Zafar Altinboyevichga (2025-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilimovich notarial idorasida marhum Kabilova Sarvinoz Islomovnaga (2025-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Ka-

moliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Uvaydova Narzi-oy Mirsaidovnaga (2020-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Xakimov Xalimga (1992-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Kodirova Zulxumor Xomidovnaga (2023-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Mirmuxamedova Maxbuba Xali-

movnaga (2025-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isooilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Mansurov Rustamga (1996-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isooilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Bagirov Mamasharifga (2025-yil 18-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Azizkulov Bobir Tursunkulovichga (2021-yil 1-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Rasulov Baxtiyorga (2025-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farux Farxodovich notarial idorasida marhum Oblakulov Namozga (2020-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Tashbekov Otabek Yarlakapovichga (2025-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xakimova Ulgilga (2024-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Tursunov Ibdillo Xatamovichga (2020-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

BEKOR QILINADI

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani-dagi "SEVARAHON PHARMA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312180578) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "BEGLOBUS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312377655) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Xalqaro tajribaga ega shifokor

Bir necha tillar, xususan, rus, ingliz, portugal tillarida bemalol so'zlashib, ish olib boradigan keng qirrali olim, eng murakkab sharoitlarda va davlatlarda ham kasbiga sadoqat bilan xizmat qilgan shifokor, yoshlarning sevimli ustozlari To'ra Eshqobilovning bo'sh o'tirganini deyarli ko'rmaysiz. Ustoz hozir, qutlug' yoshida ham yoshlarga o'rnatqan bo'lgulik darajada izlanishdan charchamaydi. O'z sohasining yetuk mutaxassisi, xalqaro ekspert olim bu darajaga osonlik bilan erishmagan.

T. Eshqobilov 1944-yilda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida tavallud topgan. Tibbiyotga qiziqishi uni shu sohada ta'lim olishga undaydi va hujjatlarini Samarqand tibbiyot institutiga topshiradi. 1968-yilda institutning davolash fakultetini imtiyozli tamomlaydi va o'sha yil oliygohning patologik anatomiya kafedrasiga aspiranturaga qabul qilindi. Aspirantura tahlilini Ukrainaning Vinnitsa tibbiyot instituti patologik anatomiya kafedrasida o'taydi. 1972-yilda Ukrainaning mazkur oliygohida tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy dissertatsiyasini himoya qildi. Ustoz 1986-yilgacha Samarqand tibbiyot

instituti patologik anatomiya kafedrasida assistent, katta o'qituvchi va dotsent lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Keyin ikki yil sobiq ittifoq sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga asosan Afg'onistonning Qobul tibbiyot institutiga patologiya bo'yicha maslahatchi-o'qituvchi lavozimida mehnat qildi. Afg'oniston safaridan qaytgach, faoliyatini Samarqandda davom ettirdi. 1990-1995-yillarda Samarqand tibbiyot instituti davolash fakulteti dekani o'rinbosari lavozimida ishladi. 1997-2000-yillarda AQShda bo'lib, Nyu-York shahrida yashadi. 2001-2003-yillarda Samarqand viloyat sud-tibbiyot ekspertiza



byurosida sud-gistologiya bo'limini boshqardi, keyinchalik Samarqand tibbiyot instituti patologik anatomiya kafedrasida mudiri vazifasini bajaradi. 2006-2011-yillarda Rossiyaning "Roszdrazzagranpostavka" tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga asosan Angola Respublikasi Biye viloyati shifoxonasida patologoanatom vrachi vazifasida ishladi. 2012-yildan hozirgacha Samarqand davlat tibbiyot universiteti patologik anatomiya kafedrasida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda.

Bugungi kunda olim patologik anatomiya kafedrasining, sog'liqni saqlash tashkilotlarining patologik anatomiya bo'yicha viloyatda yuqori malakali maslahatchisi hisoblanadi.

Tibbiyot amaliyotida faoliyat ko'rsatayotgan Samarqand shahri va viloyat tumanlarining, qo'shni viloyatlar - Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyati hamda qo'shni Panjakent shahridagi shifokorlar domlaning malakali maslahatchilari, tashxislash tajribasidan unumli foydalanib kelishmoqda.

Olimning ilmiy izlanishlari va chop ettirgan 200 dan ziyod ilmiy maqolalarining barchasi amaliyotchi shifokorlarning xastalikning kechiktir-masdan, o'z vaqtida tashxislanishiga bag'ishlangan. Ayniqsa, onkologik patologiyani erta tashxislash uning ilmiy izlanishlarida asosiy yo'nalish hisoblanadi. Uning "Afrika qit'asi tropik kasalliklari" nomli monografiyasi 79 ta kasallikni qamrab olgan va vrachlar uchun o'quv qo'llanma sifatida foydalanilmoqda. Domla viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining onkomor-fologiya bo'yicha bosh maslahatchisi hamdir.

To'ra Jo'rayevich 5 nafar farzandi, 13 nafar nevarasi qurshovida umr kechirmoqda.

Ustozga mustahkam sog'liq va xotirjamlik tilaymiz.

Farida HAMIDOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Yonimizdagi odamlar Abdurasul Jumaqulov bugun mamlakatimizning salohiyatli

jurnalistlaridan biri. Yo'q, faqat mamlakat miqyosidagi, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasining nashri hisoblangan gazeta bosh muharriri bo'lganligi uchun emas. U nimani va qanday yozishni bilgani, tahririyatning esa jamoatchilik bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'ya olganligi uchun ham havasimizda. Har qanday sharoitda bardoshga, sabrga va shijoatga sullanadi. «Fermer» nomli nodavlat haftalikni tashkil etgani, saqlab qolgani, buning yorqin misolidir.

“Hurriyat”ning JUR'ATLI MUHARRIRI

«Hurriyat»da ham A. Jumaqulov allaqachon katta tajriba yaratdi. Xususan, buning mualliflari bilan muntazam muloqot qilib turishi, dolzarb muammolarni dadil ko'tarib chiqishi, hamkasblar o'rtasida doimo ijobiy baholanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tadbirlarini yoritishda doimo faol.

«Hurriyat»ning Samarqand viloyati jurnalistlari, tahririyatlari bilan hamkorlik qilishida ham bosh muharrirning roli beqiyos. Ko'plab tadbirlarimizda ishtirok etgan va viloyatimiz mualliflarini doimo qo'llab-quvvatlab turadi.

A. Jumaqulov badiiy ijodda ham faol, o'nga yaqin kitoblar muallifi. Jahon adabiyotidan bir qancha asarlarni o'zbek tiliga o'g'irgan. Ana shu samarali xizmatlari uchun davlatimiz tomonidan «Shuhrat»



medali va «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan. Biz, samarqandlik jurnalistlar hamkasbimizni yangi kitob va qutlug' yoshi bilan chin ko'ngildan tabriklaymiz. Gazetamiz jadidlar tomonidan bir muddat «Hurriyat» nomi bilan chiqqanligi uchun Toshkentdagi «Hurriyat»ga, uning bosh muharririga, jamoasiga hurmatimiz bo'lakcha.

Abdullatif Oqsaroyda dafn etilganmi?

Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasi yaqinida XV asrga tegishli Oqsaroy yodgorligi bor. Arxeologik qazishmalar chog'ida tadqiqotchilar tomonidan bu yerdagi qabrlarning biridan boshsiz jasad topilgan va maqbarada Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdullatif dafn etilgan degan taxminga kelingan.

Ma'lumotlarga ko'ra, majmua temuriylarning so'nggi dahmasi bo'lib, qo'shimcha dahma sifatida temuriylar sulolasidan bo'lgan Abu Said (1449-1469) va Sulton Ahmad Mirzo (1469-1494) hukmronligi davrida qurilgan. Maqbara pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Oqsaroy chortoq tarhli katta xona va qarama-qarshi joylashtirilgan xonalardan iborat, bosh tarzi janubga qaragan. O'rtadagi miyonsaroy tagida esa sardoba joylashgan.

Yodgorlik qurilishida o'sha davr me'morligiga xos murakkab usullar qo'llanilgan. Ya'ni, katta xona gumbazi to'rt katta ravoq va o'zaro kesishgan ravoqchalar hamda toqilar yordamida yopilgan. Bu qurilmalar sharafta va ganch bezaklari bilan pardozlangan. Naqsh shakllari takrorlanmagan, bir ravodagi naqshda bir-biriga o'xshamaydigan 67 xil bezakgull bo'lgan. Binoning tashqi me'morligi nihoyasiga yetkazilmagan. Katta xonaning tashqi gumbazi, sakkiz qirrali poygumbazi ham tugallanmagan.

Oqsaroy maqbarasining aniq qurilgan sanasi va maqsadi haqida tarixiy manbalar yo'q, deydi «Samarqand» davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi mudiri To'liq Bo'riyev. - Sovet arxeologi va sharqshunos tarixchisi M. Masson ushbu maqbaraning qurilishi Movarounnahr hukmdori Abdullatifning o'ldirilishi bilan bog'liq bo'lib, otasi Mirzo Ulug'bek qabri Amir Temur maqbarasida bo'lgani uchun Abdullatifning u yerga dafn etilishi mumkin bo'lmagan deb taxmin qiladi. Maqbaraning me'moriy xususiyatlari va ichki bezaklari Sulton Xovand Beka maqbarasiga o'xshab ketadi. Bu



esa maqbaraning XV asr 70-yillarida qurilgan deb nisbat berish imkonini beradi. Maqbara Sulton Abu Said oilasining erkak avlodlari uchun oilaviy qabr vazifasini o'tagan bo'lishi ham mumkin. Chunki maqbarada olib borilgan tadqiqotlar davomida bir nechta qabrlar aniqlangan. XX asrga kelib yodgorlik jiddiy shikastlangan. 1924-1925-yillarda inshootda rekonstruksiya ishlari olib borilgan va bu maqbarani buzilib ketishidan saqlab qolgan. XXI asr boshlariga qadar u vayrona holatda bo'lgan. 2007-yilga kelib esa Oqsaroy maqbarasi qayta tiklangan. Maqbara bir gumbazli, to'rtburchak shakldagi bino bo'lib, asosiy zal va uchta kirish xonasini o'z ichiga oladi. Asosiy zalning yuqori qismi silindrsimon baraban ustidagi gumbaz bilan qoplangan bo'lib, uning asosini kesishuvchi ravoqlar va qalqonsimon yelkanlar tashkil qiladi. Tor zinopoyaga o'xshash yo'l marmar bilan qoplangan sakkizburchak xilxonaga olib boradi. Binoda tashqi bezak yo'q, ichki qismida, devorlarning tagida mozaikali panel mavjud. Devorlar zargarlik buyumlaridan ko'p foydalanilgan holda ishlangan bezakli rasmlar bilan qoplangan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Hech kim ko'rmayotgan va bilmayotgan holatda ham jamiyat uchun jon kuydirib ishlaganmisiz?

“Yog'du”

Urgutlik shoir Ochildi Qo'ysunni yurtimiz ijod ahli yaxshi taniydi. 1970-yillarda ijodiy muhitga kirgan ijodkorning shu vaqtga qadar “Sog'inch”, “Manzil”, “Ishq mehvari”, “Avvalgilarga o'xshamas”, “100 taxmis” kitoblari hamda “Zarafshon mavjlari”, “Urgut ohanglari”, “Urgut ziyosi”, “Benazirsan, O'zbekistonim”, “Samarqand ijodkorlari”, “Samarqand mushoirasi” nomli bayozlarda she'rlari nashr qilingan. Shoirning ko'plab she'rlari rus, ingliz, tojik va italyan tillarida ham chop etilgan. Yaqinda ijodkorning to'rtliklardan iborat “Yog'du” nomli kitobi nashrdan chiqdi. Quyida ushbu to'plamga kiritilgan to'rtliklardan namunalari o'qiyisiz.

Ochilmagan sirlari ko'p dunyoning,
Yuvilmagan kirlari ko'p dunyoning.
Osiy ko'p deb vayron qilmas Haq mulkin,
Pok, pokiza hurlari ko'p dunyoning.

Dunyoga mehmonimiz bilsang uch-to'rt kun,
Havaslar arqonin o'rma ko'p uzun.
Hayot - har kim kelib-ketar bir ovqoh,
Shirin so'z bilan dil ovlashga urin.

Mushkulsiz imkonni qozongan o'g'il,
O'zini otadan aqlli sanar.
Ustozidan olgan odob-axloqni,
Barchasi o'zimga tug'ma, deb tonar.

Insondagi yaxshi bezak tavoze',
Eng yomoni hasad, uni qilmagin.
Bo'lay desang bir umr pok, chiroyli,
Yomon so'zlab, miskin bag'rin tilmagin.

Pushaymon bo'lmadim suyganim uchun,
Hatto qayg'urmadim kuyganim uchun.
Lek ba'zan ich-etim yedim bir zamon,
O'zga oshiqchilarga kulganim uchun.

Nur kabi ko'rinsang elning ko'ziga,
Hech kimga kelmasa qilganing malol.
Hamma rozi bo'lsa sening ishingdan,
O'shanda farzandim, yeganing halol.




Ochildi QO'YSUN.

Kitob javoningizda

“Samarqandliklar”

Toshkentdagi “Muharrir nashriyoti”da samarqandlik zullisonayn olim, yozuvchi va tarjimon Asliddin Qamarzodaning keyingi yillarda yozgan she'rlari hamda tojik shoirlari ijodidan qilgan tarjimalari o'rin olgan “Samarqandliklar” kitobi nashr qilindi.

Kitobda shoirning she'rlari va manzumalari, qatralari hamda Tojikiston shoirlari ijodidan qilingan tarjimalari kiritilgan. Falsafiy fikrlar, teran mushohadalarga boy she'rlar kitobxonga yoqishi shubhasiz.



MAY OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

2-MAY

Joniqul YUSUPOV - (1918-1986) Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Mehnat qahramoni.

Xosiyat BOBOMURODOVA - 1950-yilda Xatirchi tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri.

Ilhomjon SAIDOV - 1953-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Tarix fanlari doktori.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 846 nusxada chop etildi. Buyurtma 165. Hajmi 2 bosma to'plam, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

